

METAFORAGA OID TADQIQOTLAR TAVSIFI

Yusupova Aziza Muhiddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasasi o‘qituvchisi

E-mail: azizaxonyusupova1996@gmail.com

Annotation: In world linguistics, cognitive linguistics began to emerge as a complex field. Many researchers admit that cognitive linguistics is one of the leading directions of the anthropocentric paradigm. At the end of the last century, linguist E.S. Kubryakova wrote that “Cognitive science is a science that studies the reflection and storage of knowledge within the framework of perception, classification, evaluation and understanding of the world.” This article discusses the importance, formation, development of the linguo-cognitive direction in linguistics, its types, and its role and functions in speech communication. Also, aspects such as the formation, types, characteristics of cognitive tools in the expression of metaphor, their relationship with the psychophysiological state of man and society are considered.

Key words: Cognitive linguistics, cognitive metaphor theory, metaphor, understanding, perception.

Annotatsiya: Jahan tilshunosligida kognitiv tilshunoslik majmuaviy soha sifatida paydo bo‘la boshlagan. Ko‘plab tadqiqotchilarning e’tirof etishicha, kognitiv tilshunoslik antropotsentrik paradigmaning yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘tgan asr so‘ngida tilshunos E.S.Kubryakova “Kognitiv fan bu- dunyoni idrok etish, tasniflash, baholash va tushunish doirasida bilimlarni aks ettirish va saqlashni o‘rganadigan fan”dir deb yozadi. Ushbu maqolada tilshunoslikda lingvokognitiv yo‘nalishining ahamiyati, shakllanishi, taraqqiyoti, uning turlari va nutqiy aloqadagi o‘rni, vazifalari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, metafora ifodalanishida kognitiv vositalarning shakllanishi, turlari, xususiyatlari, ularning inson va jamiyat psixofiziologik holati bilan aloqadorligi kabi jihatlari haqida ham mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Kognitiv tilshunoslik, kognitiv metafora nazariyasi, metafora, anglash, idrok qilish.

Dunyo tilshunosligida metaforaning bevosita kuzatishda berilmagan obyektlarni nomlash vazifasi kognitologlar tomonidan turlicha qabul qilingan. Qadimgi yunon olimlari metaforaning psixolingvistik tabiatini, inson his-tuyg‘ularining belgilarga aylanishini sof fiziologik omillar bilan bog‘lashgan. Yevropa zamonaviy tilshunosligida metaforaning generativ semantikasi, kognitiv funksiyasi, kommunikativ, hissiy, assotsiativ obrazlari falsafasiga doir jihatlari keng yoritildi.

Tilshunoslikka metafora ritorika san’ati orqali kirib kelgan bo‘lib, antik sinkretizm davridagi “estetik-puristik” yondashuv asosida unga estetika va tasviriy (jozibador) nutq vositasi sifatida qaralgan. Ya’ni ushbu davr metaforologiyasida “jozibador so‘zlash - fikrni yarim shaklda, qolganini ham tinglovchiga tushunarli bo‘lgan holda ifoda etish” g‘oyasi ilgari surilgan.

“Metafora” atamasi esa ilk bor Izokrat tomonidan “Evagorus” asarida qo‘llangan. Shuningdek, Kvintilian metaforaga “tabiat inomi” deb qaragan va “hech bir predmet belgilanmay qolmasligiga ta’sir ko‘rsatadi”, deya xulosa bergen. Sitseron metafora tilda yetishmovchi ma’nolarni shakllantirish usuli sifatida yondashgan va o‘xshashlik asosida amalga oshadigan ko‘chim “tildagi so‘zning tegishli tushunchasi bo‘limganda kuzatiladi” deb mulohaza qilgan.

XVIII asrgacha metafora nazariyasini noto‘g‘ri talqin etish oqibatida mazkur muammoga nisbatan qiziqish ancha susaydi. Metaforani jiddiy va chuqur tekshirish XX asrdagina (metaforalar tadqiqi bu davrgacha ham amalga oshirilib kelingan bo‘lsa-da, XIX asrda ilgari surilgan nazariyalar hech qanday mahsuldarlikka ega emas edi. Ko‘hna Hind- Xitoy faylasuf va tilshunoslarining asarlarini o‘rganish evaziga amalga oshirila boshladi. Antik davr falsafasining tadqiq davri gullab-yashnagan XX asrda esa metafora tilning kommunikativ, nominativ bilish maqsadlarining ajralmas qismi sifatida talqin qilindi. Bu vaqtida metaforani o‘rganuvchi qiyosiy nazariya Dj. Serl va M. Blek tomonidan jiddiy tanqidga uchradi. Dj. Serl metaforani ikki semantik ma’noning verbal, ya’ni metaforik ifoda va aynan bo‘lgan kontekstual qurshovning ta’sirlashuvi yoki oppozitsiyasiga bog‘lik deb ta’kidladi. M. Blek esa, fanda birinchilardan bo‘lib, metaforani qiyosni ifoda etuvchi emas, yuzaga keltiruvchi sifatida ta’rifladi.¹ XX arning 60-yillarida generativ semantikaning rivojlanishi metaforaning kognitiv funksiyasi, kommunikativ, hissiy, poetik va boshqa qator xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etdi. Karaulov o‘z tadqiqotlari bilan mantiqiy bilishning antropotsentrik, mifologik, poetik asoslarini o‘rganishga katta hissa qo‘shtigan. Nemis tilshunosligida metaforalarning: personifikatsiya, simvolizatsiya, allegoriya, sinesteziya deb nomlangan ko‘rinishlari bor. Nutq hodisasisiga oid metaforalarning ko‘rinishlarini ba’zi o‘zgarishlar bilan til hodisasisiga oid metaforalarga tatbiq etsa bo‘ladi. Bunda nutqning sof o‘z xususiyatidan kelib chiqqan simvolizatsiya va allegoriyalarni chiqarib tashlashga to‘g‘ri keladi. Chunki simvolizatsiya nutq kechimidagi ellipsis bilan bog‘li sodir bo‘luvchi metaforadir. Allegoriya esa nutq kechimidagi ko‘chirim va intonatsiya bilan bog‘li holatda yuzaga chiqadi. Shundan kelib chiqib, til hodisasi bo‘lgan metaforalar oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi ko‘rinishlarga bo‘linadi.

Jahon adabiyotining o‘zbek tiliga o‘girilgan materiallari asosida diskursiv yuqori qo‘llanilish chastotasiga ega metaforalar ajratilgan, bu orqali til egasining tipik kommunikativ vaziyatdagi milliy-mental, kommunikativ ekspressiyasini ifoda etuvchi metaforalarning tipik kommunikativ vaziyatlardagi konseptual xususiyati tushuntirib berilgan; olamning milliy lingvokognitiv tasvirida axloqiy-baholovchi psixik-mental birlik sifatiga ega bo‘lgan metaforalarning o‘z munosib o‘rni borligi nazariy jihatdan metafora, metaforizatsiya jarayoni, inson tafakkurining metaforologik qobiliyati haqida bugungacha ko‘p aytildi. Antik davrlardan nutqning ta’sirli-tasviriy vositasi va jozibasi deb qaralib kelingan mazkur hodisa haqida bildirilgan jami fikrlarning orasida esa yaqin yillardan buyon metaforaga bilish jarayonining o‘ziga xos aspekti, usuli, fikrlash mexanizmi, inson ongingin tuyulganidan-da zalvorliroq, ahamiyatliroq fenomeni ekani to‘g‘risidagi xulosalar o‘zining tasdig‘ini topgan ilmiy haqiqatlardir.

Mustaqillik yillarida milliy ma’naviyatimizning kuzgusi bo‘lgan ona tilimizning cheksiz imkoniyatini lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish, tarixan iyomon-e’tiqodli millatimiz ruxi, dunyoqarashini yorqin aks ettiruvchi konseptual birliklarni o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratildi. Bu hol ko‘plab tadqiqotchilarini semantik aloqadorlik borasidagi izlanishlarga boshladi.

Metafora nazariyasiga oid qarashlarga qo‘shimcha tarzda Taroziy, keyinchalik Fitrat singari adabiyotshunoslari metaforani she’riy san’at sifatida ko‘rsatdilar. Barcha tillarda kuzatilgani kabi metaforalarni tekshirish o‘zbek tilshunosligida ham XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga kelib o‘zining jiddiy ilmiy-tadqiqiy rivojini topdi.

¹ Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лисоний когнитив ва лингвомаданий аспекти. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш ёзилган диссертация. – Фарғона, 2019.– Б. 78.

O‘zbek leksikologiyasiga doir keng qirrali izlanishlar muallifi, atoqli olim M.Mirtojiyev metaforalarni nutq hodisasiga va til hodisasiga oid turlarga ajratadi.² M.M.Mirtojiyevning ta’rificha, oddiy metaforani deyarli qisqargan o‘xshatish deb bo‘lmaydi. Oddiy metafora referentlarning oddiy qiyosi, o‘xshashligiga asoslansa, personifikatsiya jonsiz referentning jonli referenta o‘xshatilishiga sintesteziya bir sezgida his qilingan referentning boshqa sezgi bilan his qilingan referentga belgilarini ongda umumlashtirib qiyoslanishiga, o‘xshatilishiga asoslanadi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir. Tilshunos R. Kungurov metaforani yashirin o‘xshatish deb atab, uni oddiy qiyosdan farqlaydi. Oddiy qiyos ham doim asosiy ikki a’zodan tashkil topadi, metaforada esa, faqat ikkinchi a’zo – o‘xshatilgan narsa qoladi, o‘xshagan narsa tushiriladi, lekin u konteksdan ochiq sezilib turadi. Demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi a’zo orqali idrok qilinadi.

Shuningdek, tilshunos olim N.M.Maxmudov ham metaforalar orasida sinestetik metaforalarni ajratadi va “Sinestetik metaforalar tarkibidagi so‘zlar o‘zaro zid, bir-biriga mutlaqo qaramaqarshi bo‘lishi ham mumkin. Bunday g‘ayriodatiy birikmalar “oksyumaron birikmalar” ham deb yuritiladi” (masalan, *Yaxshidur achchiq haqiqat, lek shirin yolg‘on yomon.* – Erkin Vohidov), deb yozadi.

M.Yo‘ldoshev esa, tilshunoslikda mazmun jihatdan metaforalarning uch turi, uni odatiy metaforalar, sinestetik va jonlantirish metaforalari farqlanishini aytadi.

D.S.Xudayberganova metaforalarni matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etish bilan birga, til egalarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni namoyon etuvchi hodisa sifatida baholaydi va o‘xshatish hamda metaforalar asosiga qurilgan matnlarning muayyan tilda qoliplashgan matn shakllarini aniqlash imkoniyatini berishini aytadi.³ Olima ularni matnning pretsedent shakllari sifatida baholaydi hamda kognitiv metaforalarning so‘z, so‘z birikmasi, gap va mikromatn shaklidagi metaforalarga ajratilishini qayd etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda tilshunosligimiz lisoniy birliklar tadqiqidan nutq birliklarini o‘rganishga, lisoniy imkoniyatlarning voqelanishini kuzatish bosqichiga qadam qo‘ydi. Metaforaga bag‘ishlangan an’anaviy qarashlar metaforani undagi hollar almashinuviga turtki beruchi funksiyalarni inobatga olmagan xolda shunchaki lisoniy birlik, kontekstual o‘sish deb baholadi. Xolbuki, fikrning o‘zi metaforik xarakterga ega, u qiyos orqali yuz ochadi va tilda o‘z ifodasini topadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Hakimov M. Tag ma’no va tag bilim xususida ba’zi mulohazalar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. - № 1.
- 2.Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. - T: O‘qituvchi, 1995.
- 3.Мадвалиев А. Ўзбек тили изоҳли луғати.–Тошкент: Ўзбекистон. 2011.
- 4.Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
- 5.Насруллаева Г. Антропоцентрик метафоранинг лисоний когнитив ва лингвомаданий аспекти. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Фарғона, 2019.– Б. 78.

² Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент, 2010.

³ Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-ИЮН, 2024

6. Махмараимова Шохиста. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрганланган диссертация. – Самарқанд, 2020. – Б. 64.
7. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент, 2010.
8. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.